



## THE POLICY OF GEOCULTURAL DETERMINISM IN THE OTTOMAN EMPIRE'S CENTRAL ASIAN STRATEGY

**F.A. Shoqulov**

*PhD Candidate (Doctoral Researcher) in World History*

*Faculty of History*

*National University of Uzbekistan*

*Tashkent, Uzbekiston*

---

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** geo-cultural determinism, soft power, cultural code, jadidism, intellectual integration, Turkestan, Turkey, Ottoman Empire, Komak Society.

**Received:** 19.06.26

**Accepted:** 20.06.26

**Published:** 21.06.26

**Abstract:** This article analyzes the geocultural relations of the Ottoman Empire (subsequently the Republic of Turkey) toward the Central Asian region during the first quarter of the 20th century. It delineates the developmental stages of cultural ties between the two regions during the eras of the Russian Empire and Bolshevik rule. Furthermore, the study examines the transition of these relations from mere cultural influence "soft power" into systematic cooperation in the fields of education and science "intellectual integration", while also investigating the underlying causes of their politicization. Utilizing new scientific sources, the article systematically elucidates the convergence of the regional Jadid movement representatives - particularly the Bukharan and Khivan Jadids with the Ottoman educational system, as well as the activities of societies such as "Komak".

---

## USMONIYLAR IMPERIYASINING MARKAZIY OSIYO STRATEGIYASIDA GEOMADANIY DETERMINIZM SIYOSATI

**F.A. Shoqulov**

*O'zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti*

*Jahon tarixi tayanch doktoranti*

*Toshkent, O'zbekiston*

---

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** geomadaniy determinizm, yumshoq kuch, madaniy kod, **Annotatsiya:** Ushbu maqolada XX asrning birinchi choragidagi Usmoniylar

jadidchilik, intellektual integratsiya, Turkiston, Turkiya, Usmoniylar imperiyasi, Ko‘mak jamiyati, jadidchilik.

imperiyasi (keyinchalik Turkiya Respublikasi) ning Markaziy Osiyo hududiga nisbatan geomadaniy munosabatlari tahlil qilingan. Rossiya imperiyasi va bolsheviklar boshqaruvi davrida ikkala mintaqa o‘rtasidagi madaniy aloqalarning rivojlanish bosqichlari ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, tadqiqotda munisabatlarning shunchaki madaniy ta‘siridan “yumshoq kuch” tizimli ta‘lim hamda ilm-fan sohasidagi hamkorlikka “intellektual integratsiya” aylanish jarayonlari hamda ushbu munosabatlarning siyosiy lashuv sabablari o‘rganilgan. Mintaqadagi jadid harakati namoyondalari, xususan, Buxoro va Xiva jadidlarining Usmoniylar imperiyasi ta‘lim tizimi bilan yaqinlashuvi hamda “Ko‘mak” kabi jamiyatlarning faoliyati yangi ilmiy manbalar asosida tizimli yoritilgan.

---

## ПОЛИТИКА ГЕОКУЛЬТУРНОГО ДЕТЕРМИНИЗМА В ЦЕНТРАЛЬНОАЗИАТСКОЙ СТРАТЕГИИ ОСМАНСКОЙ ИМПЕРИИ

**Ф.А. Шокулов**

*Базовый докторант кафедры всемирной истории*

*Исторический факультет*

*Национальный университет Узбекистана*

*Ташкент, Узбекистан*

---

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** геокультурный детерминизм, мягкая сила, культурный код, джадидизм, интеллектуальная интеграция, Туркестан, Турция, Османская империя, общество «Комак».

**Аннотация:** В данной статье анализируются геокультурные отношения Османской империи (впоследствии Турецкой Республики) с регионом Центральной Азии в первой четверти XX века. Освещены этапы развития культурных связей между двумя регионами в периоды Российской империи и большевистского правления. Кроме того, в исследовании рассматривается процесс трансформации этих отношений из плоскости исключительно культурного влияния «мягкая сила» в формат системного сотрудничества в сфере образования и науки «интеллектуальная интеграция», а также изучаются причины их политизации. На основе новых научных источников систематически освещается сближение представителей местного джадидского движения, в частности бухарских и хивинских джадидов, с образовательной системой Османской империи, а также

**Kirish.** Tarixda XX asrning boshi jahon siyosiy sahnasida katta-katta imperiyalar inqirozga uchragan hamda xalqlar o‘z milliy ozodligi uchun kurash boshlagan davr bo‘ldi. Mana shu transformatsion davrda Markaziy Osiyo va Turkiya o‘rtasidagi munosabatlar geomadaniy determinizmning eng yorqin tarixiy namunasiga aylandi.

XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida Rossiya imperiyasi Turkistonda kuchli mustamlakachilik siyosatini olib bordi. Ular mahalliy aholining madaniy hamda ma’rifiy rivojlanishini sun’iy ravishda cheklab qo‘yishga harakat qilishdi. Ana shunday sharoitda o‘lkaning ziyolilar qatlami jamiyatni uyg‘otish hamda yangilash uchun tashqi dunyodan strategik tayanch izlay boshladilar. Bu paytda Usmoniylar imperiyasi G‘arb modernizatsiyasi hamda islom islohotchiligini birlashtira olgan edi. Shu sababdan Turkiya Markaziy Osiyo ziyolilari uchun tabiiy joziba vazifasini bajardi. Usmoniylar imperiyasining Markaziy Osiyodagi pozitsiyasi dastlab “yumshoq kuch” ko‘rinishiga namoyon bo‘ldi. Keyinchalik esa bu jarayonlar yoshlarni o‘qitish, matbuot va adabiyotlar almashinuvi natijasida faol “intellektual integratsiya” bosqichiga ko‘tarildi. Ushbu maqola yuqoridagi jihatlarni batafsil yoritishdagi dastlabki qadamlardan biri hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Ushbu mavzuni tarixiy hamda konseptual jihatdan yoritishda oxirgi yillarda nashr etilgan hujjatlar to‘plamlari, xalqaro va mahalliy dissertatsiyalar, shuningdek, monografiyalardan keng foydalanildi. Bu borada turkiyalik professor Mustafo Budakning ishlari alohida ahamiyatga ega. U ilmiy ishlarida XVI asrdan XX asrgacha bo‘lgan Usmoniylar-Turkiston munosabatlarini o‘rgangan va ikki xalq o‘rtasida Naqshbandiya tariqati hamda adabiy qadriyatlar kabi umumiy madaniy poydevorlarni tahlil qilgan [2, 2024, 123-148-betlar]. Shu bilan birga, “Belgelerde Osmanli- Türkistan Iliskileri” nomli arxiv hujjatlari to‘plamida Turkistonlik ziyoratchilar hamda ziyolilarning Usmoniylar sultoniga yozgan xatlari munosabatlarning tarixiy ildizini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qildi [9, 2025, 60-96-betlar].

XX asr boshlaridagi ma’rifiy va matbuot sohasidagi aloqalarini tahlil qilishda akademik Begali Qosimovning jadidchilikka oid tadqiqotlari asos sifatida olindi [10, 1999, 93-betlar]. Shuningdek, Ismoil Gaspiralinig “Tarjimon” gazetasi va uning Turkistondagi yuqori tabaqa vakillariga ta’siri bibliografik materiallar yordamida o‘rganildi [13, 2025, 5-25-betlar]. Abdurauf Fitratning Istanbuldagi publisistik faoliyati va u yerdagi nashrlar bilan hamkorligi o‘zaro aloqalarni yoritishda muhim o‘rinni egallaydi [4, 2012, 135-142-betlar].

Turkiston yoshlarining chet ellarda, shu jumladan, Turkiyada ta'lim olishi tarixini tadqiq etishda tarixchi olim A.Yo'ldoshevning dissertatsiyasi va ilmiy maqolalari birinchi darajali manba bo'ldi. Muallif o'z ishida "Ko'mak" jamiyati va uning yoshlarni chet elga o'qishga yuborishdagi rolini arxiv manbalari asosida ochib bergan [17, 2022, 58-bet]. Tadqiqotchi olimalar M.Mo'minova hamda D.Jamolovalarning ilmiy tadqiqotlari [8, 2023, 45-51-betlar; 14, 2021, 180-bet] tahlil qilinib, ulardagi Usmonxo'ja Po'latxo'jayevning Usmoniylar va Markaziy Osiyo (Jumladan, Buxoro amirligi, Turkiston o'lkasi)dagi siyosiy va madaniy faoliyatiga oid yangi faktlar va xulosalar tadqiqot doirasiga kiritildi.

**Muhokama va natijalar.** XX asning birinchi choragida Markaziy Osiyo hududidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlar g'oyat murakkab edi. Bu davrda Rossiya imperiyasi mustamlakasi hisoblangan Turkiston general gubernatorligi hamda ichki boshqaruvda nisbatan mustaqillikka ega bo'lgan Buxoro amirligi va Xiva xonligi mavjud bo'lib, bu ikkala davlat [13, 2025, 20-bet] tashqi siyosatda Rossiya imperiyasiga qaram davlatlar hisoblangan va chor hukumatining harbiy-ma'muriy nazorati ostida bo'lgan. Shunday bo'lishiga qaramasdan, Markaziy Osiyo xalqlarining diniy va ijtimoiy hayotida an'anaviy islom qadriyatlari saqlanib qolgan edi. Mustamlakachilik tizimi o'zining strategik xavfsizligini ta'minlash maqsadida mintaqa aholisini dunyo taraqqiyotidan, texnika yutuqlaridan va eng muhimi, tashqi siyosiy-madaniy ta'sirlardan butunlay uzib qo'yishga harakat qildi. Xalqlarning uzoq asrlardan beri shakllangan o'zaro tarixiy va madaniy aloqalari Rossiya imperiyasining bu harakatlarini to'liq amalga oshirish imkonini bermadi. Turkiyalik tadqiqotchi Yusuf Sarinayning fikriga ko'ra, mana shu jarayonlar Usmoniylar imperiyasining Markaziy Osiyodagi "geomadaniy determinizm" siyosatining vujudga kelishiga asos bo'ldi. Ya'ni, etnik birlik, til va din mushtarakligi kabi asosiy omillar har qanday sun'iy va siyosiy chegaralarni chetlab o'tigan holda, ikki hudud aholisini bir biri bilan bog'lovchi kuch vazifasini bajardi [11, 2018, 1-22-betlar].

Turkiyaning Markaziy Osiyodagi mafkuraviy ta'siri, ya'ni o'ziga xos "yumshoq kuch" siyosati bir nechta asosiy "madaniy kod"\* larga tayanar edi. Xususan, diniy jihatdan yaqinlik, xususan, islom dinining xanafiylik mazhabi jihatdan yaqinlik, islom dinining hanafiylik mazhabi hamda ikki hududning ma'naviy hayotida muhim o'rin egallagan Naqshbandiya tariqati aloqalarning muhim asosini tashkil etganligini [2, 2024, 123-148-betlar] turkiyalik tarixchi M.Budak ham ta'kidlab o'tadi. Shuningdek, yagona turkiy o'zak va til birligi asosiy birlashtiruvchi kuch vazifasini bajardi. Qrim ma'rifatparvari Ismoil Gaspiralinining "Tilda, fikrda, ishda birlik" g'oyasi asosida nashr etilgan "Tarjimon" gazetasi nafaqat axborot tarqatuvchi, balki "mintaqa ziyolilari, dindorlari va yuqori qatlam vakillari orasida yagona adabiy til me'yorlarini hamda umumiy madaniy makonni shakllantiruvchi asosiy vositaga aylandi" [10, 1999, 70-90--

betlar]. Shu bilan birga, Usmoniylar imperiyasining islom olamidagi maqomi va G'arb davlatlarining ta'lim sohasidagi zamonaviy yutuqlarini yuqori darajada o'zlashtirgan yangi usul maktablari Markaziy Osiyo islohotchilari uchun ideal namuna vazifasini bajardi [8, 2023, 45-51-betlar]. Shu sababdan ko'plab ziyoratchilar, savdogarlar va yoshlar haj safari bahonasida yoki savdo aloqalari tufayli Istanbulga yo'l olganlar. Istanbulga kelgach, ular mamlakat ijtimoiy hayoti, davriy matbuot va dunyoviy maktablar faoliyati bilan shaxsan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi [9, 2025, 351-366-betlar]. Ushbu madaniy muloqot Markaziy Osiyo, xususan Turkiston jamiyatidagi tub o'zgarishlarga turtki bo'ldi.

Ammo, XX asrning boshlariga kelib, ushbu madaniy va ma'rifiy aloqalar siyosiy tus ola boshladi. Bu siyosiy lashuvning birinchi asosiy sababi – 1908-yilda Usmoniylar imperiyasida sodir bo'lgan “Yosh turklar” inqilobi hamda u orqali vujudga kelgan konstitutsiyaviy erkinliklar edi [1, 2003, 702-bet]. Usmoniylar imperiyasida sodir bo'lgan bunday siyosiy o'zgarishlar Turkiston jadidlariga jamiyatni faqatgina maktab ochish yoki kitob chiqarish bilan o'zgartirib bo'lmashligini, tub o'zgarishlar uchun esa siyosiy hokimiyat va milliy muxtoriyat g'oyalari kerakligini ko'rsatdi. Shuningdek, Usmoniylar imperiyasida kuchaygan turkiy va diniy birlik g'oyalari Rossiya imperiyasi ma'murlarida jiddiy vahima uyg'otdi. Rossiya hukumati bu harakatlarni o'z davlatining janubiy chegaralarini yaxlitligi hamda imperiya xavfsizligiga qarshi qaratilgan to'g'ridan-to'g'ri geosiyosiy tajovuz deb qaradi [12, 2025, 74-91-betlar]. Natijada, imperiya ma'murlari Turkiyadan kelayotgan har qanday adabiyot, ziyoratchi yoki savdogarni oddiy madaniy element emas, balki davlat yaxlitligiga qarshi qaratilgan siyosiy qo'poruvchilik quroli deb hisoblay boshladilar. Aynan shu holat o'zaro muloqot tizimini mafkuraviy urush maydoniga aylanlanishiga olib keldi.

Ushbu geosiyosiy to'qnashuvlar fonida Buxoro jadidlarining yirik namoyondasi Abdurauf Fitratning 1909-1913-yillardagi Istanbuldagi hayoti va ijodi o'zaro bilim, g'oya va intellektual diplomatiyaning eng yuqori nuqtasi bo'ldi. Fitrat Istanbulda “Tarbiyayi atfol” jamiyati yordami bilan tahsil oldi. Shu bilan birga bir paytning o'zida turk mutafakkiri Mehmet Akif Ersoy rahbarlik qilgan “Sirotu-l-mustaqim” jurnali atrofidagi ilmiy jamoaga qo'shiladi [4, 2012, 135-142-betlar]. U jurnalda Buxoro amirligidagi illatlar hamda “Munozara”, “Bayonoti sayyohi hindi” kabi asarlarini nashr etadi [14, 2021, 180-bet]. Istanbulda yuzaga kelgan bu erkin va tanqidiy muhit Fitrat va uning safdoshlarini real siyosiy kurashga tayyorladi. Shu davrda buxorolik yana bir jadid – Usmonxo'ja Po'latxo'jayev ham Istanbulda Ziyo Ko'kalb bilan yaqin hamkorlik o'rnatgan [8, 2023, 45-51-betlar]. Usmonxo'ja u yerda “Buxoro ta'mimi maorif” jamiyatini tashkil qiladi. U jamiyat orqali Turkistondan kelayotgan ko'plab yoshlarning zamonaviy ta'lim olishini moliyalashtirgan, ularni yo'naltirish ishlariga bosh-qosh bo'lgan [14,

2021, 167-bet]. Bu esa madaniy aloqlarning shunchaki shaxsiy tashriflardan tizimli kadrlar tayyorlash ko‘rinishiga aylanganidan darak beradi.

Dastlab, madaniy aloqalar norasmiy va xususiy tashabbuslar orqali amalga oshirilgan bo‘lsa, XX asrning 20-yillaridan boshlab Rossiyada sodir bo‘lgan inqilobiy jarayonlar va Markaziy Osiyoda sovet namunasidagi respublikalar tashkil etilishi bilan ikki o‘rtadagi munosabatlarni davlat o‘z nazoratiga ola boshladi. Soddaroq qilib aytganda aloqalar to‘liq “intellektual integratsiya” bosqichiga o‘tdi. Siyosiy hokimiyat tepasiga kelgan milliy rahbarlar (Fayzulla Xo‘jayev, Abdurauf Fitrat) o‘lkaning mustaqil kelajagi uchun sovet mafkurasidan xoli bo‘lgan yangi muhandis, shifokor va huquqshunos kadrlar kerakligini yaxshi anglar edilar. Shuning uchun ham 1922-yilda Toshkentda milliy ziyolilar boshchiligida “Ko‘mak” uyushmasi tashkil etiladi. Ushbu jamiyat xalq va boy savdogarlardan to‘plangan xayriya mablag‘lari hamda Buxoro hukumati oltin zaxiralari hisobidan iqtidorli yoshlarni Germaniya va Turkiyaga o‘qishga yuborishni boshladilar [17, 2022, 50-bet]. Istanbulda ham ushbu harakatlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Turkiston-turk yoshlari birligi” kabi talabalar tashkiloti tuziladi. Bu yoshlar G‘arb ilmiy metodologiyasini va Anadolu maktablari tajribalarini mukammal o‘zlashtirdilar. Ular ikki mintaqa o‘rtasidagi uzoq muddatli ilmiy ittifoqning asosiy poydevorini yaratdilar [16, 2021, 16-20-betlar].

Ammo, ikki o‘rtada o‘rnatilgan bu mustahkam intellektual ko‘prik sovetlar hokimiyatining siyosatiga mutlaqo zid edi. Sovet rejimi o‘zining sinfiy va proletar mafkurasiga bo‘ysunmaydigan, xorijiy markazlar bilan bog‘langan har qanday harakatni yo‘q qilish strategiyasini boshladi [6, 2015, 365-bet].

1920-yillarning o‘rtalariga kelib, sovetlar “madaniy inqilob” shiori ostida barcha jadid maktablarini yopdilar. Ta‘lim esa to‘liq davlat nazoratiga o‘tdi[18, 2011, 52-bet].. Turkiy tillarni bir-biriga yaqinlashtirish, imlo islohotlarini umumiy asosda o‘tkazish g‘oyalari sovetlar tomonidan “aksilinqilobiy panturkizm” deb e‘lon qilindi. Sovet hukumati Turkiyada ta‘lim olib kelayotgan barcha talabalarning stipendiyalarini to‘lashni ham to‘xtatib qo‘ydi. Pasportlarini esa bekor qilib, ularni “vatan xoinlari” sifatida majburan ortga qaytara boshladilar. Qaytganlarning ko‘pchiligi keyinchalik qatag‘on qilindi[17, 2022, 48-bet].

Shunday bo‘lsa-da, bolsheviklar mafkurasining bu ma‘muriy va qatag‘on choralari geomadaniy determinizm zanjirini butunlay parchalay olmadi. Sovet siyosatidan omon qolib, Turkiyada qo‘nim topgan Ahmad Zakiy Validiy To‘g‘on, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev kabi arboblardan Istanbul va Anqara universitetlarida akademik kafedrlar ochib, Turkiston tarixini, adabiyotini va madaniyatini ilmiy jihatdan tadqiq etuvchi maktablarga asos soldilar[7, 2023, 240-bet]. Ular tomonidan yaratilgan ilmiy meros Sovet Ittifoqi davrida temir pardalar orqasida

qolib ketgan Markaziy Osiyo xalqlarining o'zligini jahon ilm-fanida tirik saqlab qolishga xizmat qildi.

**Xulosa.** XX asrning birinchi choragidagi madaniy aloqalar Usmoniylar imperiyasi va Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy hayotiga katta ta'sir o'tkazdi. Ushbu jarayonni tahlil qilish orqali quyidagi xulosalarga kelish mumkin: Avvalo, til, din va qon-qarindoshlik rishtalari har qanday siyosiy to'siqlardan ustun bo'lib chiqdi. Rossiya imperiyasi va Sovet hukumati tomonidan Markaziy Osiyoda olib borgan milliy-madaniy siyosatidagi dunyoda sodir bo'lgan tabiiy jarayonlarni to'xtata olmadi. Mana shu holat "geomadaniy determinizm" atamasini to'liq asoslaydi. Fikrimizcha, umumiy madaniy ildizlar baribir xalqlarni bir-biriga tortadi va munosabatlarni tiklaydi.

Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat va Usmonxo'ja Po'latxo'jayev kabi ziyolilar tufayli bu munosabatlar faol bilim almashinuvi darajasiga ko'tarildi. Matbuot va adabiyotlar almashinuvi orqali umumiy g'oyalar shakllandi. Bu jarayon xalqlarning fikrlash tarzini va ongini birlashishini ta'minladi. Davr taqozosi bilan bu madaniy aloqalar muqarrar ravishda siyosiylikka ketdi. Markaziy Osiyo marifatparvarlari millatni qaramlikdan qutqarish uchun siyosiy ozodlik va muxtoriyat g'oyalari ehtiyoj sezidilar. Rossiya imperiyasi va bolsheviklar esa Istanbul bilan bo'lgan har qanday aloqani o'z xavfsizliklariga siyosiy xavf deb bildilar. Oqibatda, oddiy maktab va ta'lim ishlari ham katta siyosiy kurash maydoniga aylandi.

Shu bilan birga, "Ko'mak" jamiyati orqali turkistonlik yoshlarining Turkiyaga o'qishga jo'natilishi bu davrning muhim yutuqlaridan biri bo'ldi. Bu harakat yagona ilm-fan va kadrlar poydevorini yaratdi. Sovet hukumati qatag'onlar orqali bu tizimni buzishga intildi. Ammo, geomadaniy zanjir to'liq uzilmadi. Turkiyada qolib ilmiy ishlarini davom ettirgan ziyolilar Turkiston tarixini dunyoga tanitdilar. XX asr boshlarida jadidlar tomonida poydevori qo'yilgan ushbu intellektual hamkorlik bugungi kunda Turkiy Davlatlar tashkiloti doirasidagi aloqalarning tarixiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ahat Andican. Ceditizm'den Bağımsızlığa Harekte Türkistan Mücadelesi. İstanbul: Emre Yayınları, 2003. – 702 s;
2. Mustafa Budak. Türkiye-özbekistan İlişkilerinin Tarihi Zemini: Osmanlı-Türkistan Arasındaki Siyasi ve Kültürel İlişkiler (XVI-XX. Yüzyıllar) // Avrasya İncemeleri Dergisi – Journal of Eurasian Inquiries. 13,2. 2024. – 123-148 s;
3. Ismoil Gaspıralı. Türkistan Üleması. – Bog'chasaroy: Tarjimon nashriyati, 1900. – 45 s.

4. Inomxo‘jayev R. Abdurauf Fitratning “taraqqiy va tajaddud” maqolasi va uning Turkiya taassurotlari // O‘zbekiston sharqshunosligi va xalqaro aloqalari tarixi ilmiy jurnali, № 2, 2012. – 135-142 b;
5. Kemal Karpat. The Ottoman State and its Place in World History. Istanbul: Timaş Yayınları. 2012. – 350 s.
6. Khalid Adeeb. Making Uzbekistan: Nation, Empire and Revolution in the Early USSR. – London: Cornell University Press, 2015. – 415 p;
7. Timur Kocaoğlu. Türkistan’da Türk Subayları: Raci Çakıröz’ün Anıları. – İstanbul: Kutlu Yayınevi, 2023. – 245 s;
8. Mo‘minova M. Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayevning Turkiston va Turkiya aloqalaridagi roli // Eurasian Research Bulletin. Volume 25, November, 2023. – 45-51 p;
9. Akmaral Ospanova, Baglan Shorayev. Religious Connections Between the Ottoman Empire and Turkistan (during the XIXth and early XXth Centuries): Istanbul as a Pilgrimage Road // Türk Kültürü ve Hacı Bektaş Veli Araştırma Dergisi, 114 (Haziran 2025). – S. 351-366;
10. Qosimov B. O‘zbek adabiyoti va adabiy aloqalar tarixi. Monografiya. – Toshkent: 1999. – 60-96 b.
11. Yusuf Sarıнай. Türkistanlı Hacıların Ziyaret Merkezi Olarak İstanbul // Bilig: Türk Dünyası Sosyal Bilimler Dergisi, Sayı 88. 2018. – S. 1-22;
12. Gulnariya Simukanova. Geopolitical Rivalry and Cultural Diplomacy in Central Eurasia in the Early 20th Century // Journal of Central Asian Studies, 39(1). 2025. – 74–91 p;
13. Tillaxodjayeva X., Esanov A. Ismoil Gaspirali va Turkiston saroy elitasi // Science Journal of International Integration, 2025. – 5-25 b;
14. Жамолова Д. Бухоро амирлигида жадидлар (XX аср бошлари). – Тошкент: Фан, 2021. – 180 б;
15. Ирзаев Б. Олимжон Сирожий. Германияда ўқиган эдилар. – Тошкент: Академ-хизмат, 2021. – 120 б;
16. Исмоилова У. XX асрнинг 20-йилларида Туркистон ёшларининг хорижда таълим олиш ҳаракати // Тамаддун нури, № 4 (32). 2021. – Б. 16-20;
17. Йўлдашев А. Туркистон ёшларининг хориждаги таълими тарихи (XIX аср охири – XX аср бошлари). Тарих фанлари доктори (DSc) дисс. автореферати. – Тошкент, 2022. – 58 б;
18. Қиличев, Р. Жадидчилик ва миллий мафкура. – Бухоро: Бухоро нашриёти, 2011. – 52 б.